



## XALQ DEPUTATLARI AMUDARYO TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 12 - yanvar

VI-56-1-13-181-K/23

Amudaryo tumani hokimligi

### **Amudaryo tumanida jismoniy va yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining “Qoraqalpog‘iston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida”gi 2023-yil 9-yanvar kungi 1062-sonli qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asoslanib xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2023-yil 9-yanvar kungi 1062-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin va tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘ining hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi belgilangan yer solig‘i stavkalariga, tuman hududida joylashgan ovul va mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega ekanligi;

Bunda, belgilangan yer solig‘i stavkasiga soliq yukini keskin oshirishning oldini olish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘iga belgilangan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) stavkasiga 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 hissasidan oshmagan holda koeffitsientlarni qo‘llash mumkin ekanligi belgilab qo‘yilsin.

3. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 1-ilovaga muvofiq, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq

xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Salayev), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Seitov) tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarning egallagan yer maydonlariga soliq stavkalarini to‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha doimiy nazorat o‘rnatsin.

5. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Seitov)ga xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha yer solig‘i to‘lovchilarni o‘z vaqtida xabardor qilish va undirilishini ta‘minlash topshirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror tuman “Taraqqiyot ko‘zgusi” gazetasida e‘lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**S.Yo'ldashev**

Xalq deputatlari Amudaryo tuman  
Kengashining  
2023 yil 12 yanvardagi  
VI-56-1-13-181-K/23-son qaroriga  
1-ilova

Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik shaxslarning) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan belgilangan yer solig'i stavkalariga, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda **1 gektar** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo'llagan holda belgilangan yer solig'i stavkalari

*Ming.so'mda*

T/r	O'FY, MFY va ShFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2022-yil uchun yer solig'i stavkasi (ming.so'mda)
1	A.Navoiy MFY	0,85	21 343,5
2	Ayoqchi MFY	0,7	17 577,0
3	Amir Temur OFY	0,7	17 577,0
4	Arna bo'yi MFY	0,7	17 577,0
5	Beruniy MFY	0,85	21 343,5
6	Besh ovul MFY	0,7	17 577,0
7	Besh tom MFY	0,7	17 577,0
8	Bobur OFY	0,7	17 577,0
9	Bog' MFY	0,7	17 577,0
10	Boy ovul MFY	0,85	21 343,5
11	Bosuv MFY	0,7	17 577,0
12	Bo'z yop OFY	0,7	17 577,0
13	Bo'z solma MFY	0,7	17 577,0
14	Bo'ston MFY	0,85	21 343,5
15	Gulzor MFY	0,85	21 343,5
16	Daryo bo'yi MFY	0,7	17 577,0
17	Do'rman OFY	0,7	17 577,0
18	Durunki MFY	0,85	21 343,5
19	Do'stlik MFY	0,85	21 343,5
20	Jumur ovul MFY	0,7	17 577,0
21	Jumurtov ShFY	0,7	17 577,0
22	Kuyuk ko'pir OFY	0,7	17 577,0
23	Qangli OFY	0,7	17 577,0
24	Qizilcholi MFY	0,7	17 577,0
25	Qilichboy OFY	0,7	17 577,0
26	Qipchoq OFY	0,7	17 577,0

27	Qipchoq ShFY	0,7	17 577,0
28	Qoramon MFY	0,7	17 577,0
29	Qum yop MFY	0,7	17 577,0
30	Nazarxon OFY	0,7	17 577,0
31	Namuna MFY	0,7	17 577,0
32	Oybek MFY	0,85	21 343,5
33	Oq oltin OFY	0,7	17 577,0
34	Olmazor MFY	0,85	21 343,5
35	Tor yop MFY	0,7	17 577,0
36	Tosh yop OFY	0,7	17 577,0
37	Tosh qal'a MFY	0,7	17 577,0
38	To'lqin OFY	0,7	17 577,0
39	O'zbekiston MFY	0,7	17 577,0
40	Uyshin MFY	0,7	17 577,0
41	O'rta qal'a OFY	0,7	17 577,0
42	Farovon MFY	0,85	21 343,5
43	Xizr eli MFY	0,7	17 577,0
44	Xitoy OFY	0,7	17 577,0
45	Xolimbeg OFY	0,7	17 577,0
46	Choyko'l OFY	0,7	17 577,0
47	Chordara MFY	0,85	21 343,5
48	Yuqori qishloq MFY	0,7	17 577,0
49	Yangiobod MFY	0,85	21 343,5

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining qaroriga muvofiq, Amudaryo tumani bo'yicha yuridik shaxslar uchun qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yer solig'ining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 2023-yilga belgilangan bazaviy stavkaga (25 110,0 ming.so'm) nisbatan indeksatsiya qilindi.

Xalq deputatlari Amudaryo tuman  
Kengashining  
2023 yil 12 yanvardagi  
VI-56-1-13-181-K/23-son qaroriga  
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (Dexqon xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) **1 kv.metr** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilgan kamaytiruvchi hamda oshirilgan koefitsientlari

*So'mda*

T/r	O'FY, MFY va ShFYlar nomi	Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha)	2022-yil uchun yer solig'i stavkasi (so'mda)
1	A.Navoiy MFY	0,95	198,34
2	Ayoqchi MFY	0,7	146,15
3	Amir Temur OFY	0,7	146,15
4	Arna bo'yi MFY	0,7	146,15
5	Beruniy MFY	0,95	198,34
6	Besh ovul MFY	0,7	146,15
7	Besh tom MFY	0,7	146,15
8	Bobur OFY	0,7	146,15
9	Bog' MFY	0,7	146,15
10	Boy ovul MFY	0,95	198,34
11	Bosuv MFY	0,7	146,15
12	Bo'z yop OFY	0,7	146,15
13	Bo'z solma MFY	0,7	146,15
14	Bo'ston MFY	0,95	198,34
15	Gulzor MFY	0,95	198,34
16	Daryo bo'yi MFY	0,7	146,15
17	Do'rman OFY	0,7	146,15
18	Durunki MFY	0,95	198,34
19	Do'stlik MFY	0,95	198,34
20	Jumur ovul MFY	0,7	146,15
21	Jumurtov ShFY	0,7	146,15
22	Kuyuk ko'pir OFY	0,7	146,15
23	Qangli OFY	0,7	146,15
24	Qizilcholi MFY	0,7	146,15
25	Qilichboy OFY	0,7	146,15
26	Qipchoq OFY	0,7	146,15
27	Qipchoq ShFY	0,7	146,15
28	Qoramom MFY	0,7	146,15

29	Qum yop MFY	0,7	146,15
30	Nazarxon OFY	0,7	146,15
31	Namuna MFY	0,7	146,15
32	Oybek MFY	0,95	198,34
33	Oq oltin OFY	0,7	146,15
34	Olmazor MFY	0,95	198,34
35	Tor yop MFY	0,7	146,15
36	Tosh yop OFY	0,7	146,15
37	Tosh qal'a MFY	0,7	146,15
38	To'lqin OFY	0,7	146,15
39	O'zbekiston MFY	0,7	146,15
40	Uyshin MFY	0,7	146,15
41	O'rta qal'a OFY	0,7	146,15
42	Farovon MFY	0,95	198,34
43	Xizr eli MFY	0,7	146,15
44	Xitoy OFY	0,7	146,15
45	Xolimbeg OFY	0,7	146,15
46	Choyko'l OFY	0,7	146,15
47	Chordara MFY	0,95	198,34
48	Yuqori qishloq MFY	0,7	146,15
49	Yangiobod MFY	0,95	198,34

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining qaroriga muvofiq, Amudaryo tumani bo'yicha jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yer solig'ining bazaviy stavkasi 1 kv.metr uchun 2023-yilga belgilangan bazaviy stavkaga (208,78 so'm) nisbatan indeksatsiya qilindi.